

SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




Sirdaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

2022 yil yanvar – sentabr oylarida

2022- yil yanvar - sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi - milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-hilligini, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



2022- yil yanvar - sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli hildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar – sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3690,1** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **659,9** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **114,4** % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

(2022- yil yanvar - sentabr oylarida)

3690,1 mlrd.
so'm

114,4 %

•Xizmatlar hajmi

659,9 mlrd.
so'mga

•O'sish sur'ati

• Hajmning o'sishi

2022- yil yanvar- sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar - sentabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	3690,1	114,4
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	204,4	120,4
Moliyaviy xizmatlar	1 187,9	119,5
Transport xizmatlari	480,7	106,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	450,8	105,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	87,1	103,9
Savdo xizmatlari	899,4	105,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	98,0	109,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	132,3	110,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	78,5	111,4
Ijara xizmatlari	109,6	162,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	86,5	107,7
Shaxsiy xizmatlar	70,5	107,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	32,9	110,2
Boshqa xizmatlar	222,3	140,5

2022- yil yanvar - sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan past ko'rsatkich

Nisbatan yuqori ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlar egallaydi. 2022- yilning yanvar - sentabr oylarida ularning ulushi 32,2 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori sur'atlar savdo (24,4 %), transport xizmatlari (13,0 %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (5,5 %) qayd etildi.

2022- yil yanvar - sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida biroz kamayish qayd etilib, ularning ulushi **0,9 %** ga yetdi

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar - sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **32,3 %** ni tashkil etgan. 2021- yilning shu davrida me'morchilik sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatkichga ega bo'lgan – **0,9 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatda texnik jihozlanish darajasining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.


2022- yilning yanvar – sentabr oylarida yuqori o'sish ijara xizmatlarida (162,4 %), aloqa xizmatlarida (120,0 %) qayd etildi.

Buning sababi, korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tiklash bilan bir qatorda koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish uchun qo'yilgan cheklovlarni yumshatilishi bilan bog'liq.

2022- yil yanvar - sentabr

Dastlabki ma'lumotlar


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da



Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar – sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – 132,7 %.

Boshqa xizmatlar esa ushbu davrda ko'tarilish kuzatilgan – 131,1 %.

Transport xizmatlarining o'sish sur'ati, % da
(2022- yil yanvar - sentabr)



2022- yilning yanvar - sentabr oylarida transport xizmatlarining yuqori o'sishiga Boyovut (108,1 %), Sayxunobod (107,5 %) shuningdek, Mirzaobod tumanlari (109,2 %) ga erishildi.

Ushbu sohadagi xizmatlar hajmining biroz o'sish sur'ati Sardoba (104,9 %) tumanida qayd etildi.

Transport xizmatlarining ko'rsatilgan eng yuqori ulush ko'rsatkichlari Guliston (24,2 %) va Yangiyer (14,4 %) shaharlarda, Sirdaryo (20,2 %) tumanga to'g'ri keldi.

Eng past ulush ko'rsatkichi Shirin shahrida qayd etildi (1,6 %).

2022- yil yanvar - sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yilning yanvar - sentabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **24,4 %** ni tashkil etib, bu esa **899,4** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar - sentabr oylarida ularning hajmi 758,6 mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **25,0 %** ga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari



2021- y. yanvar- sentabr




2022 y. yanvar - sentabr

2022- yil yanvar - sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismini, aniqrog'i **71,2 %** ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi
(2022- yil yanvar - sentabr oylarida)




Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar - sentabr oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **71,4 %** ni tashkil etgan.

2022- yil yanvar - sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar kesimida savdo xizmatlarining tarkibi, % da
(2022- yilning yanvar - sentabr oylarida)



■ Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda

■ Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

■ Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

2022- yil yanvar - sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, chakana savdo xizmatlarining eng katta ulushi Oqoltin (79,6 %) Boyovut (79,6 %) va Sardoba tumanlarida (67,2 %), Yangiyer shahrida (73,4 %) kuzatilmoqda.



Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar - sentabr oylarida chakana savdo ulushi Mirzaobod tumanlarida maksimal darajaga yetgan – 81,7 %.

Sayxunobod tumanida bu ko'rsatkich nisbatan past. Bu yerda chakana savdo ulushi 39,1 % ni tashkil etdi. Biroq, bu tumanda ulgurji savdoda xizmatlar ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) ancha katta – 56,6 % ni tashkil etdi.



Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar – sentabr oylarida Sayxunobod tumanida Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdo ulushi 4,3 % ni tashkil etdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosidagi xizmatlarning nisbatan yuqori ulushi Oqoltin (11,1 %), Xovos (9,8 %), Guliston (9,7 %), Sardoba (7,5 %) tumanlarida qayd etildi.



Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar – sentabr oylarida ushbu xizmat turining salmoqli ulushi Oqoltin tumaniga to'g'ri kelgan – 11,1 %.

2022- yil yanvar - sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2022- yil yanvar - sentabr oylarida)

2022- yil yanvar - sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1187,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar - sentabr oylarida ularning hajmi **977,5** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2022- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **32,2** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar – sentabr oylarida ularning ulushi **32,3** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **210,4** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar - sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **119,5** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar – sentabr oylarida ularning o'sish sur'ati **132,7** % ni tashkil etgan.

2022- yil yanvar - sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **93,0 %** ni tashkil etdi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **4,4 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar - sentabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **2,3 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2022- yil yanvar – sentabr oylarida)



Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar - sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **94,0 %** ni sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **3,8 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar **2,2 %**.

2022- yil yanvar - sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2022- yilning yanvar - sentabr oylarida)

2022 - yilning yanvar - sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **204,4** mlrd. so'm darajasida belgilandi.


2021- yilga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati **120,4 %** ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun:
2021- yilning yanvar - sentabr oylarida ushbu xizmat turi hajmi **168,5** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiy hajmining **5,6 %** ga teng bo'lgan. O'sish sur'ati esa **127,7 %** ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati

Hajmning o'sishi



Jami hajmdagi ulushi

Xizmatlar hajmi


2022- yil yanvar – sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2022- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar




2022- yilning yanvar – sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **132,3 mlrd.** so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **3,6 %** ni tashkil etdi. 2021- yilning yanvar – sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **110,2 %** ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar - sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yilning yanvar - sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori hajmi Sirdaryo (6,8 mlrd. so'm), Mirzaobod (1,8 mlrd. so'm), tumanlarida shuningdek, Guliston (103,0 mlrd. so'm) va Yangiyer (14,8 mlrd. so'm) shaharlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd. so'm
(2022- yil yanvar – sentabr oylarida)



Taqqoslash uchun:
2021- yilning yanvar – sentabr oylarida Guliston shahri bo'yicha ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 103,0 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2022- yil yanvar – sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

67,0 mlrd.
so'm

87,1 mlrd.
so'm

Xizmatlar hajmi

2021- y.
yanvar - sentabr

2022- y.
Yanvar – sentabr

114,0 %

103,9 %


O'sish sur'ati

2021- yilning yanvar - sentabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **20,1** mlrd. so'mga ortgan.


2022- yil yanvar - sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



2021- y. yanvar- sentabr



2022- y. yanvar - sentabr



Yashash bo'yicha
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar

2022- yil yanvar - sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **89,2** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar - sentabr oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **88,3** % ni tashkil etgan.

2022- yil yanvar - sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli hil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2022- y. yanvar - sentabr

78,5
mlrd. so'm

2,1 %

111,4 %



Xizmatlar
hajmi

Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi


O'sish
sur'ati

2021- y. Yanvar - sentabr

64,6
mlrd. so'm

2,1 %

134,8 %



2022- yil yanvar – sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar - sentabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2022- y.	2021- y.
Sirdaryo viloyati	3690,1	114,4	122,3
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	1 665,70	113,5	126,0
Shirin	50,50	111,3	119,7
Yangiyer	287,50	111,2	116,7
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	278,00	133,3	123,1
Guliston	158,50	114,3	119,0
Mirzaobod	166,90	109,6	120,2
Oqoltin	112,80	113,8	121,9
Sardoba	137,20	114,7	115,6
Sayxunobod	153,60	110,5	115,6
Sirdaryo	502,60	113,3	121,1
Xovos	176,80	115,3	120,2


2022- yil yanvar - sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, Respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da
(2022- yil yanvar – sentabr oylarida)



2022- yil yanvar - sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Guliston shahri tashkil etdi – **45,1 %** (2021- yilning yanvar - sentabr oylarida – **45,5 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Shirin shahrida – **1,4 %** (2021- yilning yanvar - sentabr oylarida – **1,4 %**) qayd etildi.

2022- yil yanvar - sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi



Hajmning
o'sishi



2022- yilning yanvar - sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4167,8 ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar - sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 112,1 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2021- yilning yanvar - sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 3493,6 ming so'mni tashkil etgan.

2020- yilning yanvar - sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 120,1 % da qayd etilgan.



O'sish sur'ati

2022- yil yanvar - sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

10522 birlik

2021- yilning mos davriga nisbatan ular sonining kamayishi

39 birlikga

2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

99,6 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi

62,3 %

20221- yil yanvar - sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**50,1** %).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **8,9** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **5,3** % ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,0** % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **2,1** % ni tashkil etdi.

Savdo – 50,1

Boshqa turdagi xizmatlar – 31,6

Yashash va ovqatlanish – 8,9

Tashish va saqlash – 5,3

Axborot va aloqa – 2,0

Sog'liqni saqlash – 2,1


2022- yil yanvar - sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2022- yil yanvar - sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **51,1 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hisssasi **79,6 %** ga to'g'ri keldi.

